

## KASBIY TA'LIMDA TALABALARNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Narkulova Nozila Dilshod qizi

*Jizzax Ko'p Tarmoqli Tibbiyot Texnikumi*

*"Jamoada hamshiralik ishi" fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kasbiy ta'limda, ayniqsa tibbiyot sohasida talabalarni baholashning zamonaviy usullari yoritiladi. Baholash talabaning bilimini tekshirish vositasi bo'libgina qolmay, balki uning o'zlashtirishi, amaliy ko'nikmalari va fikrlash darajasini aniqlash imkonini beradi. Maqolada diagnostik, formatif va summativ baholash, shuningdek, OSCE, portfolio va rubrika asosidagi baholash kabi innovatsion metodlar tahlil qilinadi. Zamonaviy baholash talabaning faolligini oshirish, ta'lim sifati va shaffoligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** *kasbiy ta'lim, baholash usullari, tibbiyot ta'limi, formatif baholash, OSCE, portfolio, rubrika, zamonaviy yondashuv.*

**Abstract:** *This article explores modern methods of student assessment in vocational education, particularly in the medical field. Assessment is not merely a tool to check knowledge, but a means to measure a student's learning process, practical skills, and critical thinking ability. The paper analyzes diagnostic, formative, and summative assessment, as well as innovative techniques such as OSCE, portfolio, and rubric-based evaluations. Modern assessment plays a vital role in improving student engagement, ensuring educational quality, and maintaining transparency.*

**Keywords:** *vocational education, assessment methods, medical education, formative assessment, OSCE, portfolio, rubric, modern approach.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются современные методы оценки студентов в системе профессионального образования, особенно в медицинской сфере. Оценка – это не только способ проверки знаний, но и инструмент для выявления уровня усвоения, практических навыков и критического мышления студентов. Анализируются диагностическая, формативная и суммативная оценка, а также инновационные подходы, такие как ОСКЭ, портфолио и рубрика. Современные методы оценки способствуют повышению активности студентов, обеспечению качества обучения и прозрачности процесса.*

**Ключевые слова:** *профессиональное образование, методы оценки, медицинское образование, формативная оценка, ОСКЭ, портфолио, рубрика, современные подходы.*

### KIRISH

Bugungi kunda kasbiy ta'limda, ayniqsa tibbiyot sohasida talabalarni baholash usullari juda muhim bo'lib qolmoqda. Chunki o'quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy

ko'nikmalarni ham egallashlari kerak. Avvallari faqat yozma imtihonlar orqali baholangan bo'lsa, hozir zamonaviy usullar paydo bo'ldi. Endi talabaning bilimiga, ishlash qobiliyatiga, muloqotiga va amaliyotda qanday harakat qilishiga qarab ham baho qo'yiladi. Bu o'zgarishlar darsni qiziqarli qiladi, talabalarni ham faolroq bo'lishga undaydi.

Asosiy qism:

1. Baholash turlari:

Kasbiy ta'limda baholash uch xil ko'rinishda bo'ladi:

Diagnostik baholash – o'quv yilining boshida talabani qanday darajada ekanini aniqlash uchun qilinadi.

Formativ baholash – dars davomida o'quvchini kuzatib boriladi, o'qituvchi unga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Summativ baholash – bu oraliq yoki yakuniy imtihon bo'lib, umumiy baho chiqariladi.

2. Zamonaviy baholash usullari:

Hozirgi zamonda ko'plab yangicha baholash usullari mavjud:

OSCE – bu amaliy topshiriqlarni stansiyalar orqali bajarish bo'lib, haqiqiy hayotdagi holatlarga o'xshab yaratiladi.

Portfolio – o'quvchining barcha ishlarini yig'ib boriladi: referatlar, amaliy daftari, klinik topshiriqlar va boshqalar.

Rubrika – baholash mezonlari aniq ko'rsatilgan jadval orqali o'quvchining ishi baholanadi.

Elektron testlar – testlarni onlayn platformalar orqali (Quizizz, Google Form) topshirish ham mumkin.

3. Afzalliklari.

Zamonaviy baholash usullari o'qituvchi va talaba uchun juda foydali:

Talabani mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Faollikni oshiradi, darsga qiziqish tug'diradi.

O'quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, unga yordam berish imkonini yaratadi.

O'qituvchiga dars sifatini yaxshilashga yordam beradi.

## **XULOSA**

Kasbiy ta'limda zamonaviy baholash usullaridan foydalanish o'quv jarayonini ancha samarali qiladi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida bu juda muhim, chunki bu yerda faqat darsda eshitgan narsani emas, balki uni amalda ham qo'llay olish kerak. Yangi baholash usullari – OSCE, portfolio, rubrika va boshqalar – talabaga mustaqil ishlashni, o'zini baholashni, amaliy vazifalarni yechishni o'rgatadi. O'qituvchi esa o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini ko'rib, unga yordam bera oladi. Umuman olganda, bu usullar ta'lim sifatini oshiradi va o'qituvchi bilan talaba orasida yaxshi aloqa bo'lishiga yordam beradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Macmillan.
2. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
3. O'zbekiston Respublikasi SSV (2023). Kasbiy ta'limda innovatsiyalar va baholash mezonlari.
4. Modern Approaches to Assessment in Clinical Education. Medical Teacher Journal, 2022.
5. <https://www.edutopia.org/>
6. <https://www.sciencedirect.com/>